

## XITOIY TILIDA “好 (hǎo)” NATIJA BUYUYSINING QOLLANISH XUSUSIYATLARI

Sobirova Malika Otabek qizi

TDSHU, Xitoyshunoslik oliy maktabi 3-kurs talabasi tel: 911513679. Tel  
malikamakhmudova14@gmail.com

Z.Z. Artikova

Ilmiy rahbar: Xitoyshunoslik oliy maktabi katta o'qituvchisi, PhD

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20489432>

**Annotatsiya:** Ushbu maqola xitoy tilshunosligida keng qo'llaniladigan natija buyuysidan<sup>1</sup> biri — “好 (hǎo)”ning lingvistik xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada “好” ning fe'llar bilan birikib, harakatning muvaffaqiyatli, to'liq va qoniqarli yakunlanganligini ifodalashdagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, uning boshqa natija buyuysi bilan semantik va grammatik farqlari hamda kundalik nutqdagi qo'llanish darajasi ko'rib chiqiladi. Xitoy tilida natija to'liqlovchilarining faol ishlatilishi tilning o'ziga xos grammatik tizimini aks ettiruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda xitoy tilini o'rganishda ayniqsa “好” kabi birliklarning to'g'ri qo'llanishi nutqning aniqligi va tabiiyligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu tadqiqot natijalari xitoy tilidagi natija kategoriyasini chuqurroq anglash va amaliy nutqda to'g'ri qo'llash imkonini beradi.

**Kalit so'zlar:** natija buyuysi, 结果补语, 好 (hǎo), xitoy tili, grammatika, fe'l, semantika.

**Kirish.** Tilshunoslik – tilning tuzilishi, vazifalari va rivojlanishini o'rganadigan fan bo'lib, u tilning barcha qatlamlarini qamrab oladi. Morfologik xususiyatlar esa so'zlarning tuzilishi, ularning shakl o'zgarishi va grammatik ma'nolarini ifodalaydi. Shu sababli morfologiya tilshunoslikning muhim bo'limi sifatida tilning ichki tuzilishini hamda o'zgarish qonuniyatlarini tushunishga yordam beradi. Xitoy tili o'zining morfologik xususiyatlariga ko'ra murakkab tillardan biri hisoblanadi. Ushbu tilda oltita so'z turkumi farqlanadi. Bosh bo'laklar 主语 (zhuyu) ega va 谓语 (weiyu) kesim, ikkinchi darajali bo'laklar: 定语 (dingyu) aniqlovchi, 宾语 (binyu) to'ldiruvchi, 状语 (zhuangyu) hol va 补语 (buyu) hol va 补语 (buyu). Xitoy tilida natija buyuysi (结果补语) harakatning yakuniy natijasini ifodalashda muhim grammatik vosita hisoblanadi. Natija buyuylari harakatning yakuniy natijasini ko'rsatadi. Bular orasida “好 (hǎo)” eng ko'p ishlatiladigan va muhim birliklardan biri hisoblanadi. Adabiyotlarda qayd etilishicha, U nafaqat harakatning tugallanganligini, balki uning muvaffaqiyatli va sifatli bajarilganligini ham ifodalaydi. Shu sababli mazkur birlikni o'rganish xitoy tilini chuqur anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi:** Ba'zi tilshunoslar, jumladan xitoy tili grammatikasi bo'yicha tadqiqotlar olib borgan olim Chju Dexi (朱德熙) “好” ni natija va baho kategoriyasining kesishgan nuqtasi sifatida talqin qiladi<sup>2</sup>. Chunki u boshqa natija to'ldiruvchilardan (masalan, “完”) farqli ravishda neytral emas, balki ijobiy semantik rangga ega. Shu sababli, “好” ishlatilgan gaplar ko'pincha tinglovchida ijobiy tasavvur uyg'otadi.

Bundan tashqari, Californiya universiteti zamonaviy lingvistlaridan Li va Thompson “好” ning pragmatik funksiyasi ham alohida ta'kidlaydi. Ya'ni, u nutqda:

<sup>1</sup> Харакат миқдорини билдирувчи ҳол ( хитой тилида буюй деб аталади) – хитой тили грамматикасида оддий ҳолдан фарқ қилиб ажратилади. Энг кўзга ташланадиган фарқи буюй феъл–кесимга нисбатан кейинги позицияни эгаллайди ва ҳаракат ҳоли вазифасини бажараётган сўзлар учун ишлатилади. Artikova Z.Z. Xitoy tili 把 “ba” iyegrolifining polifunksional xususiyatlari: Филол. фан. ном. ... дисс. – Тошкент, 2025. – В. 37.

<sup>2</sup> 朱德熙 (Zhu Dexi). 语法讲义. 北京: 商务印书馆.

- gapni yumshatadi
- muloqotni tabiiylashtiradi
- so'zlovchining ijobiy munosabatini bildiradi

Masalan, “你说好了再走” (yaxshilab aytib bo'lgach ket) gapida “好” nafaqat natijani, balki harakatning to'g'ri va aniq bajarilishi zarurligini ham bildiradi.

**Natija va muhokamalar.** Xitoy grammatikasiga oid ilmiy manbalarda “hao”ning harakat natijasini ifodalashdagi roli alohida ta'kidlanadi. Ayniqsa kundalik nutqda 好 (hǎo) yordamida gapning mazmuni yanada aniq va tabiiy tus oladi. Shuningdek, “好” natija buyuysi gapda predmet yoki holatning tayyorligini bildiradi.

Masalan, 饭做好了 (ovqat tayyor bo'ldi), 东西准备好了 (narsalar tayyorlandi) kabi gaplarda asosiy urg'u natijaga qaratilgan. Bu esa xitoy tilining o'ziga xos xususiyati bo'lib, harakatdan ko'ra natijaga e'tibor berilishi bilan izohlanadi. “好” boshqa natija buyuylaridan semantik jihatdan farq qiladi. Masalan, “完 (wán)” faqat harakatning tugaganini bildirsa, “好 (hǎo)” esa harakatning ijobiy va sifatli yakunlanganini ko'rsatadi. Shu sababli “好” ko'proq natijaning muvaffaqiyatli amalga oshganligini ifodalashda qo'llaniladi.

Bundan tashqari 成 (chéng) buyuysini 好 (hǎo) buyuysi bilan qiyoslanganda muhim semantik farqlar namoyon bo'ladi. 好 natija to'ldiruvchisi harakatning nafaqat yakunlanganini, balki uning sifat jihatdan to'g'ri, muvaffaqiyatli va talab darajasida bajarilganini bildiradi. Ya'ni, 好 tarkibida evaluativ (baholovchi) komponent mavjud bo'lib, u natijani “yaxshi” deb tavsiflaydi. Agar 成 va 好 taqqoslangansa, quyidagi asosiy farqlar kuzatiladi:

Birinchidan, 成 harakatning amalga oshganligini (success of realization) bildirsa, 好 harakatning sifat jihatdan mukammal bajarilganini (quality of result) ifodalaydi. Ikkinchidan, 成 da natija ko'proq fakt sifatida (objective realization) taqdim etiladi, 好 da esa natija subyektiv baho (evaluation) bilan birga keladi. Uchinchidan, 成 natija to'ldiruvchisi ko'pincha harakatning muvaffaqiyatli yakun topishi yoki maqsadga erishilishi bilan bog'liq bo'lsa, 好 natija to'ldiruvchisi harakatdan keyingi tayyor yoki optimal holatni bildiradi. Hol xitoy tilida fe'l-kesimga oldin joy oladi. Eng ko'zga tashlanadigan jihati buyuy fe'l-kesimdan keyingi o'rinni egallaydi va harakat holi vazifasida ishlatiladi<sup>3</sup>.

Bundan tashqari, “好” natija buyuysi inkor shaklda ham qo'llanilishi mumkin. Xitoy tilida inkor qilish odatda “没 (méi)” orqali amalga oshiriladi. Bu holatda harakatning hali bajarilmaganligi yoki natijaga erishilmaganligi ifodalanadi. Masalan, 我还没做好 (men hali qilib bo'lmadim), 作业没写好 (vazifa yaxshi bajarilmadi) kabi gaplarda harakatning natijasi mavjud emasligi ko'rsatiladi. Bu shakl ayniqsa kundalik nutqda juda keng qo'llanilib, ishning tugallanmaganligini yoki kutilgan natijaga erishilmaganini bildiradi. Shu bilan birga, “好” ba'zi hollarda imkoniyat shaklida ham qo'llanilishi mumkin: 做得好 (yaxshi qila oladi), 做不好 (yaxshi qila olmaydi). Bu konstruktsiyalar orqali harakatning bajarilish sifati va imkoniyati baholanadi. Bu esa “好” ning nafaqat natija, balki baholovchi semantik yuklamaga ega ekanligini ko'rsatadi. Umuman olganda, “好 (hǎo)” natija buyuysi xitoy tilining grammatik tizimida muhim o'rin tutadi.

<sup>3</sup> Artikova Z.Z. Xitoy tili 把“ba” iyegrolifining polifunksional xususiyatlari: Филол. фан. ном. ... дисс. – Тошкент, 2025. – В. 122.

U orqali harakatning natijasi, sifati va yakuniy holati aniq ifodalanadi. Ayniqsa, og‘zaki nutqda uning faol qo‘llanilishi xitoy tilining kommunikativ samaradorligini oshiradi.

**Xulosa:** Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, yuqoridagi tahlillardan kelib chiqqan holda, natija to‘liglovchilarini o‘rgatishda biz bosqichma-bosqich hamda intensiv mashqlardan ko‘proq foydalangan holda o‘rganishimiz maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Misollar keltirayotganda, xitoy tilini chet tili sifatida o‘rganuvchilar tomonidan tez-tez qo‘laniladigan aniq ifodalangan va Xitoyning muloqot odatlariga mos keladigan ba‘zi misollarni tanlash lozim. Yuqoridagi ilmiy qarashlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, 好 (hǎo) oddiy natija ko‘rsatkichi emas, balki semantik va pragmatic jihatdan boy, ko‘p funksiyali birlik hisoblanadi. Uning qo‘llanilishi gapning ma‘nosini yanada aniqlashtirib, ijobiy ohang va tabiiylik bag‘ishlaydi.

### Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Zairjonovich, T. O. (2023). Xitoy tilini o‘rganuvchi talabalar tomonidan natija to‘liqlovchilarini o‘rganish jarayonidagiduch kelinayotgan muommolar [va ularningyechimi. Innovation: The journal of Social Sciences and Researches, 1(5).
2. 朱德熙 (Zhu Dexi). 语法讲义. 北京: 商务印书馆.
3. Artikova Z.Z. Xitoy tili 把 “ba” iyegrolifining polifunksional xususiyatlari: Филол. фан. ном. ... дисс. – Тошкент, 2025. – В. 37, 122.
4. Li, Charles N. & Thompson, Sandra A. (1981). Mandarin Chinese: A Functional Reference Grammar. University of California Press.